

YoSh ISTE'DODLAR BELLASHUVI



YoSh ISTE'DODLAR BELLASHUVI

O'zbekiston Yoshlar ishlari Agentiligi tashabbusi bilan o'tkazilayotgan "Yoshlar ovozi" tanlovidan asosiy maqsad eng avvalo davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus talablarini amalda tatbiq etish va albatta, yoshlar o'rtasida musiqa va san'at targ'ibotini yo'lga qo'yish, pirovardida yosh iste'dodlarni tanlab va saralab olishdan iborat.

1-sektor hududidagi 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib o'tgan tanlovda ta'lim muassasa talabalari tanlov shartlari asosida o'zaro kuch sinashdi.

Natijada yosh o'quvchilar - Zulfiyaxon Hasanjonova birinchi, Ahadjon Teshaboyev ikkinchi va Abdijalil Yuldoshaliyev uchinchi o'rinni egallab, tashkilotchilar tomonidan tashkil etilgan sovg'alarni olishga muvaffaq bo'lishdi.

So'x tumani hokimligi axborot xizmati

2022-04-11 12:49:23